

 [Sahifani PDF tarzda yuklab olish \(59 Kb\)](#)  [Versiyasi](#)  [Sahifani doc tarzda yuklab olish \(59 KB\)](#)

# O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 28 martdagi "Jismoniy tarbiya va sport sohasida tadbirkorlikni hamda xususiy sektorni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 248-son qarori haqida

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq, shuningdek, jismoniy tarbiya va sport sohasida tadbirkorlikni hamda xususiy sektorni yanada rivojlantirish, aholiga ko'rsatiladigan sport-sog'lomlashtirish xizmatlari sifatini yaxshilash, jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat-xususiy sheriklik uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida Vazirlar Kengashi **qaror qiladi**:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 28 martdagi "Jismoniy tarbiya va sport sohasida tadbirkorlikni hamda xususiy sektorni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 248-son qarori ijro uchun rahbarlikka olinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan:

a) O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi, Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasining tijorat tashkilotlari tomonidan Jismoniy tarbiya va sport vazirligining jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish va sport inshootlari, shu jumladan bo'sh turgan va faoliyat ko'rsatmayotgan inshootlari, shuningdek, suzish havzalari (keyingi o'rinlarda sport inshootlari deb ataladi) bazasida jismoniy tarbiya-sport hamda sog'lomlashtirish xizmatlarini (keyingi o'rinlarda sog'lomlashtirish xizmatlari deb ataladi) davlat-xususiy sheriklik asosida ko'rsatish tartibini joriy etish to'g'risidagi taklifi ma'qullanganligi;

b) Quyidagilar:

iqtdorli bolalar va iste'dodli yoshlarni aniqlash hamda qo'llab-quvvatlash orqali jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishning yuqori sifatini ta'minlaydigan qulay shart-sharoitlar yaratish;

sog'lom raqobat muhitini shakllantirish uchun an'anaviy xizmatlar bilan bir qatorda, sifatli va ommabop sog'lomlashtirish xizmatlaridan foydalanishning muqobil imkoniyatlarini taqdim etish bo'yicha pulli sog'lomlashtirish xizmatlari bozorini jadal rivojlantirish;

ilg'or xalqaro tajribani hisobga olgan holda, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish uchun innovatsion shakllar, uslublar va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish asosida jismoniy tarbiya va sport sohasida samaradorlik va natijadorlikni oshirish sog'lomlashtirish xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha davlat-xususiy sheriklikni yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari va vazifalari etib belgilanganligi;

v) O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi:

davlat-xususiy sheriklik sub'ektlarining faoliyatini yanada rivojlantirishga oid asosiy yo'nalishlar va vazifalarni hisobga olgan holda pulli sport to'garaklari, seksiyalari va boshqa sport-sog'lomlashtirish tadbirlarini tashkil etish orqali Sport inshootlaridan samarali va oqilona foydalanish chora-tadbirlari rejasini bir oy muddatda ishlab chiqishi hamda tasdiqlashi;

zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda ommaviy axborot vositalaridan foydalangan holda, davlat-xususiy sheriklik asosida taqdim etiladigan sport inshootlari to'g'risida manfaatdor jismoniy hamda yuridik shaxslarning keng xabardor qilinishini ta'minlashi;

b) ikki oy muddatda:

sport inshootlarining namunaviy shtatlarini;

sport inshootlaridan foydalanganlik uchun ijara to'lovlari stavkalarini hisob-kitob qilish metodikasi to'g'risida, jumladan, birinchi navbatda, davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etilgan sub'ektlarga muayyan imtiyozlar berish nazarda tutilgan nizomni;

o'n olti yoshgacha bo'lgan bolalar, nogironlar va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj boshqa toifalariga imtiyozli shartlar asosida yoki bepul xizmatlar ko'rsatish nazarda tutilgan sport inshootlarida aholiga sog'lomlashtirish xizmatlari ko'rsatish tartibi to'g'risidagi nizomni ishlab chiqishi va belgilangan tartibda tasdiqlashi;

g) O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi Qorakalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari bilan birgalikda sog'lomlashtirish xizmatlarini ko'rsatish faoliyati bilan shug'ullanadigan yuridik shaxslarga davlat mulki bo'lgan va foydalanilmayotgan binolar, ob'ektlar hamda inshootlarning davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida, belgilangan tartibda sotilishini ta'minlash belgilanganligi;

d) Sog'lomlashtirish xizmatlarini ko'rsatish faoliyati bilan shug'ullanadigan yuridik shaxslarga ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda:

bolalarda sportga muxabbat hissini, o'sib kelayotgan yosh avlod ongida sport bilan shug'ullanishning muhimligi, sog'lom turmush tarzini yuritish, ma'naviy va jismoniy komilikka intilish tushunchasini shakllantirish, ularni salbiy ta'sirlardan himoya qilish va zararli odatlardan xalos qilish, bolalarda qat'iy fe'l-atvor, Vatanga muxabbat va o'z mamlakati bilan faxrlanish tuyg'ularini qaror toptirilishi;

jismoniy tarbiya-sport jarayonini zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda sport ko'nikmalarini chuqur o'rganish yo'nalishida tashkil etilishi;

jismoniy tarbiya-sport jarayoniga mashg`ulotlar o`tkazish uchun xorijiy trenerlar va mutaxassislarni jalb etish, shuningdek, ilg`or tajribani joriy qilish tavsiya etish belgilanganligi;

e) O`zbekiston Respublikasi tijorat banklariga yangi tashkil etilayotgan va o`z faoliyatini kengaytirayotgan nodavlat sport tashkilotlarini qo`llab-quvvatlash maqsadida O`zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi tomonidan taqdim etiladigan manzilli ro`yxatlar asosida tadbirkorlarga sport inshootlarini qurish, rekonstruksiya qilish hamda zamonaviy sport uskunalari xarid qilish uchun belgilangan tartibda kreditlar berish tavsiya etilishi;

j) Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari barpo etiladigan va rekonstruksiya qilinadigan nodavlat sport hamda sport-sog`lomlashtirish inshootlarini barcha zarur tashqi muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi (elektr energiyasi, gaz, suv ta`minoti, kanalizatsiya, avtomobil`yo`llari va boshqalar) bilan belgilangan tartibda ta`minlash belgilanganligi;

z) O`zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi, O`zbekiston yoshlar ittifoqi, O`zbekiston Xotin-qizlar qo`mitasi aholini, ayniqsa uyushmagan yoshlarni jismoniy tarbiya va sport bilan shug`ullanishga keng jalb qilish uchun davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida sog`lomlashtirish xizmatlari ko`rsatuvchi tashkil etilayotgan tashkilotlarni qo`llab-quvvatlashga doir amaliy chora-tadbirlarni muntazam amalga oshirishi ma`lumot uchun qabul qilinsin.

3. Qoraqalpog`iston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalariga ko`maklashish va raqobatni rivojlantirish qo`mitasi Nukus shahri va tumanlar hokimliklari bilan birgalikda sog`lomlashtirish xizmatlarini ko`rsatish faoliyati bilan shug`ullanadigan yuridik shaxslarga davlat mulki bo`lgan va foydalanilmayotgan binolar, ob`ektlar hamda inshootlarning davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida, belgilangan tartibda sotilishini ta`minlasin.

4. Qoraqalpog`iston Respublikasi tijorat banklariga yangi tashkil etilayotgan va o`z faoliyatini kengaytirayotgan nodavlat sport tashkilotlarini qo`llab-quvvatlash maqsadida Qoraqalpog`iston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi tomonidan taqdim etiladigan manzilli ro`yxatlar asosida tadbirkorlarga sport inshootlarini qurish, rekonstruksiya qilish hamda zamonaviy sport uskunalari xarid qilish uchun belgilangan tartibda kreditlar berish tavsiya etilsin.

5. Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o`rinbosari (S.Nag`metov), Nukus shahri va tumanlar hokimliklari barpo etiladigan va rekonstruksiya qilinadigan nodavlat sport hamda sport-sog`lomlashtirish inshootlarini barcha zarur tashqi muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi (elektr energiyasi, gaz, suv ta`minoti, kanalizatsiya, avtomobil`yo`llari va boshqalar) bilan belgilangan tartibda ta`minlash ishlarini olib borsin.

6. Qoraqalpog`iston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi, O`zbekiston Respublikasi Yoshlar ittifoqi Qoraqalpog`iston Respublikasi Kengashi, Qoraqalpog`iston Respublikasi Xotin-qizlar qo`mitasi aholini, ayniqsa uyushmagan yoshlarni jismoniy tarbiya va sport bilan shug`ullanishga keng jalb qilish uchun davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida sog`lomlashtirish xizmatlari ko`rsatuvchi tashkil etilayotgan tashkilotlarni qo`llab-quvvatlashga doir amaliy chora-tadbirlarni muntazam amalga oshirishi topshirilsin.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashining o`rinbosari M.Jumanov

zimmasiga yuklansin.

## Qoraqalpog`iston Respublikasi

### Vazirlar Kengashining Raisi

Q.Sariev

Ko`rib chiqildi:

IZLASH



- [Vazirlar Kengashi](#)
- [Statistik va tahliliy ma`lumotlar](#)
- [Vazirliklar va idoralar](#)
- [Shahar va tuman hokimliklari](#)
- [Hujjatlar](#)
- [Respublika mehmonlariga](#)
- [Elektron hukumat](#)
- [Interaktiv davlat xizmatlar](#)